

## Ogohlik har dam, har qadamda

2021-yil 16-aprel kuni soat 18<sup>00</sup>da 3-Talabalar turar joyida yashovchi “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti talabalari uchun Toshkent shahar Yunusobod tumani IIO FMB TEQKB katta tezkor vakillari mayor Matyakubov Shuhrat Umidovich, mayor Umrqulov O’tkir Yusufjonovich hamda “SXTE va B” dekani o’rinbosari J.Turdiyev, talabalar kengashi raisi J.Saydahmedovlar ishtirokida. “Diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari hamda zararlari” to’g’risida davra suhbatlari o’tkazildi. Davra suhbatlari davomida mutaxassislar tomonidan Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan har xil norasmiy diniy saytlar va ularning faoliyatlari xususida, shuningdek, diniy oqimlarga ko’r-ko’rona ergashayotgan yoshlarni keyingi taqdiri va holatlari to’g’risida hayotiy misollar orqali targ’ibot va tushuntirish ishlari olib bordilar.



Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda ehtiyotkorlikka etibor qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr almashildi. Davra suhbatlari davomida talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollar va jarayonlar to’g’risida mutaxassislardan kerakli javoblarni oldilar. Bu kabi uchrashuvlarni muntazam tashkil etib borish bo’yicha mutaxassislar bilan kelishib olindi.

**“SXTE va B” fakulteti dekani o’rinbosari J.Turdiyev axboroti**  
**TIQXMMI matbuot xizmati**